



Toshkent shaharining chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi
2025-yil yanvar-oktabr dastlabki ma'lumot

I. Chakana savdo tovar aylanmasi

II. Ulgurji savdo tovar aylanmasi

III. Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi

IV. Meta ma'lumotlar

V. Aloqador boshqa havolalar.

I. Chakana savdo tovar aylanmasi

2025-yil 1-noyabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 14 097 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 197 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 13 900 tani tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-oktabr oylarida Toshkent shahrining chakana savdo tovar aylanmasi 96 046,4 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 113,7 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 41 424,0 mlrd.so'mni (o'sish sur'ati 120,2 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 54 622,5 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 109,2 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 593,7 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 110,7 %) tashkil etdi.


* – *norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda;*

Hududlar bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd so'm)

Toshkent shahri	96 046,4
Uchtepa	8 569,9
Bektemir	2 853,0
Yunusobod	11 866,6
Mirzo Ulug'bek	5 240,9
Mirobod	7 677,4
Shayxontohur	12 868,4
Olmazor	6 159,0
Sergeli	5 879,7
Yakkasaroy	7 798,7
Yashnobod	8 541,0
Yangiheyot	954,5
Chilonzor	14 239,0

Mavzuga doir havola: <https://siat.stat.uz/reports-filed/2699/meta-data>

Yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik va uyushmagan savdo tovar aylanmasi dinamikasi (*ulushi foizda*)



II. Ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025-yil 1-noyabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 18 678 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 276 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 18 402 tani tashkil qildi.

Toshkent shahar bo'yicha 2025-yilning yanvar-oktabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 214 754,8 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 12,0 % ga o'sdi.

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 139 144,2 mlrd so'mni tashkil qilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 108,8 % ga to'g'ri keldi. Respublikada ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 35,3 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)




Mavzuga doir havola: <https://siat.stat.uz/reports-filed/2762/meta-data>

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Bektemir (198,7 %), Uchtepa (178,9 %), Chilonzor (149,8 %), Mirobod (148,1 %) va Shayxontohur (131,9 %) tumanlarida kuzatildi.



* – *norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda;*

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



Mavzuga doir havola: <https://siat.stat.uz/reports-filed/2696/meta-data>

III. Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi


2025-yil 1-noyabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 5 5361 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 63 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 5 298 tani tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-oktabr oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 28 481,4 mlrd so'mga yetdi. 2024-yilning mos davriga nisbatan 14,3 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 60,2 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari hissasiga to'g'ri keldi.

* – *norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda;*




Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Mavzuga doir havola: <https://siat.stat.uz/reports-filed/2827/meta-data>

Hududlar kesimida umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



IV. Meta ma'lumotlar

*Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi-2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

ichki savdo – yuridik va jismoniy shaxslarning mamlakat ichki bozorida tovar mahsulotlarini sotish bilan bog'liq iqtisodiy faoliyati. Bunday savdo ikki toifaga bo'linadi ulgurji va chakana savdo;

ulgurji savdo – tovarlarni chakana sotuvchilarga qayta sotish (o'zgarishsiz sotish), korporativ mijozlar bilan savdo qilish (masalan, sanoat, tijorat, institutsional yoki



professional foydalanuvchilar) yoki boshqa ulgurji sotuvchilarga qayta sotish; bunday savdo shaxslar kompaniyalar nomidan tovarlarni sotib olishda yoki ularga tovarlarni sotishda agentlar yoxud brokerlar sifatida harakat qilishni nazarda tutadi;

chakana savdo – tovarlarni sotish kanallaridan qat'iy nazar yangi va foydalanilgan tovarlarni tijorat maqsadlarida foydalanish huquqsiz, asosan, shaxsiy yoki uy iste'moli uchun aholiga qayta sotish (donalab yoki kichik miqdorlarda). Shuningdek, konsignatsiya yoki komissiya asosida sotish bo'yicha komitent nomidan ishlaydigan agentlarning faoliyatini ham o'z ichiga oladi;

IV. Aloqador boshqa havolalar

Ulgurji savdo hajmi (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/964/table-data>

Ulgurji savdo aylanmasining o'sish sur'ati (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/2696/table-data>

Chakana savdo aylanmasi hajmi (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/2699/table-data>

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/2700/table-data>

Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/2701/table-data>

Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi o'sish sur'ati (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/2825/table-data>

Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/2827/table-data>

Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'ati (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/2829/table-data>

Chop etishga masul: Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi	Bo'lim boshlig'i o'rinbosari : B.Mirzoulug'ov Tel: +998712038003 (3540)	Ijrochi: B.Mirzoulug'ov Tel: +998712038003 (3540)	Manzil: 100000, Toshkent sh. Mirobod t. Amir Temur k. 11-uy;
---	--	--	--